

HOZIRGI ZAMON XITOIY TILI SIYOSIY EVFEMIZMLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351999>

Astanov Shaxzod

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

*The generation of euphemism is result of mutual equilibrium between communicative intention and these related cognitive assumptions. Communicative intention originates from the addressor's needs in life, acting as a motivation for the generation of political euphemism. This thesis takes the modern Chinese political euphemism as the research object so as to study its functions and further, taking which as the classification criterion, to explore generation mechanisms of the political euphemism as well as the principles that are abide by when the speaker generates political euphemism.*

**Key words:** euphemism, political euphemism, Chen Yuan, Li Guonan, Shuding Fan, Shuding Wu.

Evfemizmlar insoniyat tildan foydalanish jarayonidagi keng tarqalgan fenomenlardan biridir, u odamlar orasida muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi, muloqotni bir tekisda ketishini ta'minlaydi, suhbatning yanada ta'sirli olib borilishini ta'minlaydi. Evfemizm so'zi yunoncha *eu*-“yaxshi”, *phemi*-“gapiryapman” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, og'zaki yoki yozma nutqda qo'llaniladigan, ma'nosi neytral “vazifasi”ga ko'ra emotsional bo'lgan so'z bo'lib, qo'pol yoki “beodob” so'zlar o'rniga qo'llaniladi.

Evfemizmlar xitoyliklar va chet ellik olimlarning ham e'tiborini tortgan. Olimlar evfemizm bo'yicha juda ko'p izlanishlar olib borganlar. Chet elda evfemizm bo'yicha qilingan asosan ikki ish ko'zga tashlanadi. Ulardan biri Angliyalik tilshunos Rawson (1981) “A dictionary of euphemisms and other doubletalk” lug'atini tuzgan inson, bu ingliz tilidagi evfemizmlar tadqiq qilingan lug'atdir. Yana boshqa biri Amerikalik tilshunos olimlar Rawson va J.S.Newman & C.C.Silver (1983) nashrdan chiqargan “*Xushmuomula so'zlar: evfemizmlar*” bu ham bir lug'at. Muallif ingliz tili evfemizmlariga tegishli bo'lgan barcha jabhalarga to'xtalib o'tgan, evfemizmlarni turlarga ajratib chiqqan, shu bilan birga har bir evfemizmning kelib chiqishi va undan foydalanish yo'llari bo'yicha batafsil tadqiqotlar olib borgan.

Chet ellik tilshunoslar teoriyasi xitoylik bir qancha olimlar og'zaki nutq darajasida evfemizmni tadqiq qilishni boshlashlariga olib keldi, shu jumladan, eng ko'zga ko'rinarlilari sotsiolingvistik tadqiqotchi Chen Yuan. U “Sotsio-lingvistik” asarida maxsus bobini evfemizmlarning kelib chiqish tarixi va jamiyatda tutgan o'rniga bag'ishlagan, evfemizm fenomenining ijtimoiy xususiyatlarini ham ko'rsatib bergan. Chen Yuanning izlanishlari xitoy tili evfemizmlarida o'z muhim o'rniga ega bo'ldi. Shundan so'ng xitoylik boshqa tillarni o'rganuvchi tilshunoslarining sferasidagi bir qanchasi chet el evfemizm tadqiqotlaridan ruhlantilar, birin-ketin maqola va dissertatsiyalar yoza boshladilar, ularning izlanish jabhalari asosan quyidagilarni qamrab olardi:<sup>1</sup>

1. Evfemizmlarni yuzaga kelish usullari va manbaalari.

Li Guonan (1989) ingliz tili evfemizmlari yuzaga kelish usullarini atroflicha o'rgangan. Shuding Fang (1989) ta'kidlashicha, garchi evfemizmlar yuzaga kelish usullari juda ko'p va juda

<sup>1</sup>吕明臣. 话语意义的建构. 长春: 东北师范大学出版社 2005. 83

xilma-xil bo'lsada, ammo barcha evfemizmlarning strukturasi quyidagi bir necha prinsiplarga tayanadi: 1. Masofa prinsipi; 2. Aloqadorlik prinsipi; 3. Ta'sirlantirish prinsipi.<sup>2</sup>

#### 2. Evfemizmlarning turlari va xususiyatlari

Har bir tadqiqotchi qo'llagan turlarga ajratish usuli har xil bo'lgani sabab, tadqiqot natijalari ham no'xshashligiga olib kelgan. Shaojun Hang, Weiwei (2002) chet ellik tadqiqotchilarning evfemizmlarni turli klassifikatsiyalash usullarini umumlashtirdilar, ushbu asos orqali o'zlarining klassifikatsiyalash usullarini – maqsadli klassifikatsiyalash usulini ilgari surdilar. Ularning maqolasi evfemizmlarni klassifikatsiyalashda qimmatli material sifatida e'tirof etiladi.

Evfemizmlarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilishda asosan evfemizmlarning ma'no xususiyati tadqiq qilinadi, masalan evfemizmda ijobiy bo'yoqdorlik, salbiy bo'yoqdorlik, zamonga xoslik va h.k. xususiyatlarini o'rganishgan. Tadqiqotchi Wutie Ping (1989) noaniqlik teoriyasini qo'llab evfemizmnig boshqa bir ma'noviy xususiyati – g'alizlik xususiyatini ochib bergan. Shuding Fang (1989) fikricha, evfemizmlarni qo'llash vaqtida xushmuomalalik, hamkorlik va yana bir muhim – o'z-o'zini himoyalash prinsiplari doim yonma-yon turadi. Liwei Han(2002)ning fikricha, evfemizmlarning qo'llanilishi insonning tabii evfemizmlar psixologiyasi, iltimos qilish, o'rnini qoplash, xushmuomalalik va yashirish psixologiyasi kabilarni o'ziga qamrab oldi.<sup>3</sup>

Shuding Wu (1989) “Hozirgi xitoy tilida evfemizmlarning qo'llanilishi” maqolasida xitoy tili evfemizmlarini tuzilish usullarini, qo'llanilish doirasi, bir qator prinsiplarini tahlil etgan; Yin Chun (2003) “Evfemizmlarning o'ziga xos xususiyati va qo'llanilish doirasi haqida” maqolasida hozirgi xitoy tili evfemizmlarini izlanishining obyekti qilib olgan, evfemizmlarning uch asosiy prinsipini: maqsad prinsipi, usul prinsipi, natija prinsipini aniqlagan.<sup>4</sup>

Siyosiy nutq (siyosiy til) rivojlangani sari evfemizmlar til hodisasi sifatida tadqiqotlarga asosiy mavzu bo'ldi. Siyosiy evfimizmlar - evfimizmlarning qo'llanilish jabhalarining bir turi sifatida vujudga kelgan evfimizmlar. Ular 2 jihatni qamrab oladi: 1-si hukumat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy birlashmalar va shaxsning siyosiy faoliyat olib borish jarayonida qo'llovchi siyosiy evfimizmlari; 2-si xalq siyosiy faoliyatni muhokama qilayotgan vaqtida qo'llovchi siyosiy evfimizmlari. Li Guonan (1989) va boshqa tilshunoslar evfemizmlarni tadqiq qilayotgan vaqtlarida yolg'onchi funksiyalarga e'tibor qaratdilar, ammo ularning tadqiqot obyekti ingliz tili evfimizmlari edi, ularning ishlari siyosiy evfemizmlarning funksiyalarini yoritib bermagan edi. Ammo biz izlanishlarimiz orqali bildikki, siyosiy evfimizmlarning funksiyasi bu bilan cheklanmagan.

Evfemizmlarni tadqiq qilishda mavjud ilmiy muammolarni hisobga olib, ushbu maqola hozirgi xitoy tili siyosiy evfemizmlarini izlanish obyekti sifatida oldi, tahlil qildi, siyosiy evfemizmlarning funksiyalari klassifikatsiyalash standartini belgilab berdi. Tahlil qilish jarayonida biz aniqladikki, ifodalalayotgan turli funksiyadagi siyosiy evfimizmlar – so'zlovchining xabarni qayta ishlash natijasida yuzaga keladi, shu sababli biz siyosiy evfemizmlarning yuzaga kelish mexanizmini ochib berishga harakat qildik.

Siyosiy evfemizmlar quyidagi vazifalarni qamrab oladi: xalqning turli narsa-hodisalarga hissiyotini yo'nalishini o'zgartirish, hukumat imijini himoyalash, aniq faktlarni berkitish, aniq vaqtda suhbatlashishdan qochish, hatti-harakatlarni oshkor qilmaslik, o'zga insonning talabini rad qilish, qarama-qarshilik va ziddiyatni yumshatish va ta'sirchan mavzulardan qochish.

Quyida bir necha misollarni ko'rsak:

1) 在广大农村地区，继续实行计划生育政策。<sup>5</sup>

*Zài guǎngdà nóngcūn dìqū, jìxù shíxíng jìhuà shēngyù zhèngcè*

<sup>2</sup>李国南. 英语中的委婉语[J]. 上海外国语学院学报, 1989年3期

<sup>3</sup>冯学峰. 汉语交际中的语用原则. 湖北大学学报(哲学社会科学版). 1996.(2)

<sup>4</sup>吕明臣. 话语意义的建构. 长春: 东北师范大学出版社 2005. 83

<sup>5</sup>葛新新. 政治委婉语: 分类, 机制及原则. 2006年.

Katta qishloq joylarda rejali farzand ko‘rish siyosati amal qilishda davom etmoqda.

Ushbu misolda Xitoy hukumati yumshoqlik bilan qishloq joylaridagilardan talab qiladiki, bir oilada faqat bir farzand bo‘lsin. Bu majburiyat xususiyatiga ega bo‘lgan talab bo‘lib, ba‘zi aholini yoqimsiz hislarni his etishiga undashi mumkin, “rejali farzand” evfemizmi orqali hukumat o‘z-o‘zini boshqarish huquqini aholining o‘ziga beryabdi, aholining tanlov huquqiga e‘tibor qaratyabdi. Aholi haqiqatdan ham ushbu huquqga ega yoki ega emasligidan qat’i nazar, shu tarzda gapirish aholidagi salbiy qarashlarni uyg‘otmaydi. Ushbu hissiyot esa aholini qonun chiqaruvchilar – hukumatni qo‘llab-quvvatlashiga olib keladi.

2) 美国国防部长拉姆斯菲尔德在《防务指南》中指出：为保护美国本土安全，必要时采取先发制人战略。<sup>6</sup>

*Měiguó guófáng bùzhǎng lā mǔ sī fēi ěrdé zài “fángwù zhǐnán” zhōng zhǐchū: Wèi bǎohù měiguó běntǔ ānquán, bìyào shí yào cǎiqǔ xiānfāzhìrén zhànlüè.*

AQSH xavfsizlik kotibi Lamus Freyd “mudofaa ko‘rsatmasida” da shuni ilgari surdi: AQSH hududi xavfsizligini himoya qilish uchun, zarur paytda strategiyani o‘z qo‘limizga olishimiz kerak.

Ushbu misoldagi nutq AQSH Iroqqa hujumga o‘tishidan oldin aytilgan bo‘lib, “zaruriy strategiyani amalga oshirish” evfemizmi “buzib kirish” birikmasi o‘rniga qo‘llangan. O‘zga davlatlar chegarasini buzib kirish va urush boshlash Amerikaliklar va xalqaro jamiyatning noroziligi va qarshiligiga olib kelishi mumkin, “zaruriy strategiyani amalga oshirish” esa AQSH amalga oshirgan barcha harakatlari Iroqning kelajakda Amerikaga tahdid qilishini oldini olish uchunligini bildiradi, notiq o‘zga davlat chegarasini buzib kirish harakatlari uchun juda maqbul bo‘lgan bahona topgan.

3) 陈水扁昨日称，明年三月二十日他将推动防御性公投。<sup>7</sup>

*Chénshuǐbiǎn zuórì chēng, míngnián sān yuè èrshí rì tā jiāng tuīdòng fángyù xìnggōngtóu.*

Chen Shuibian kecha aytdiki, kelasi yili 20-martda mudofani kuchaytirish bo‘yicha referendum o‘tkaziladi.

Ushbu misolda muloqot negizida o‘z manfaatini himoyalash yotibdi. Bu aniq faktlarni berkitish turidagi evfemizmdir.

Notiq Chen Shuibianing muloqot maqsadi – aholiga keying yil 20-martda mudofani kuchaytirish bo‘yicha referendum o‘tkazishni ma‘lum qilish, shu bilan birga u yana quyidagilarni nazarda tutgan:

1) Shaxsiy istagini bildirdi: Men Tayvan prezidenti bolishda davom etishni xohlayman.

2) Shaxsiy talabini bildirdi: Men yana ko‘proq ovoz beruvchilarni qo‘lga kiritishim kerak.

Chen Shuibian ham o‘zining muloqot maqsadini bildirganda, “mudofaa bo‘yicha referendum” evfemizmidan foydalandi. Chunki “mudofa bo‘yicha referendum”ni Tayvan aholisi “dushmanlar hujumiga qarshi”, “Tayvanni himoya qilish uchun amalga oshiryabdi” deb o‘ylaydi va Tayvan aholisi hukumatning bu qaroriga qarshi chiqmaydi, aksincha uni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, siyosiy evfemizmlar harbiy qo‘shinga so‘zlanayotgan nutqda, ikki davlat rahbari, elchilar va diplomatlar suhbatida, rahbarlar o‘z qo‘l ostidagilariga murojatida keng qo‘llanadi. Siyosiy sferada juda ko‘p mavzular biroz qaltis hisoblanadi, muhokama vaqtida notiq qo‘ldan kelgancha evfemizm orqali turli nozik mavzularni chetlab o‘tadi. Siyosiy evfemizmlarni ishlatuvchilar biron maqsad yoki manfaatni ko‘zlaydilar. Jumladan: xalq ishonchiga kirish; o‘z davlatining manfaatini va foydasini ko‘zlash; o‘z fikri, munosabati, tanqid va e‘tirozlarini bildirish; hukumat imijini himoyalash; insonning o‘ziga bo‘lgan hurmatini saqlash; faktning aniqligini

<sup>6</sup>葛新新. 政治委婉语：分类，机制及原则.2006年。

<sup>7</sup>葛新新. 政治委婉语：分类，机制及原则.2006年。

berkitish; inson iltimoslarini rad etishda; muhokama va aniqlikdan qochish; ochiq-oydin harakat qilmaslik; qarama-qarshilik va ziddiyatni yumshatish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Omonturdiyev A., O‘zbek nutqining evfemik asoslari, T., 2000
2. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
3. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
4. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (р. 361).
5. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
6. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
7. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
8. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
9. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
10. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
11. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
12. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
13. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
14. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
15. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
16. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
17. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019